

TA'LIM OLUVCHILARNI IJODIY FIKRLASHGA O'RGATISH ORQALI TA'LIM SIFATINI OSHIRISH (BOSHLANG'ICH SINIF MISOLIDA)

Avazova Roziyaxon Yangiboy qizi

Urganch Ranch texnologiya universiteti magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada ta'lim oluvchilarda ijodiy fikrlashni shakllantirish orqali ta'lim sifatini oshirish masalasi yoritilgan. Ijodiy fikrlashning mazmuni, uning ta'lim jarayonidagi ahamiyati hamda innovatsion usullar yordamida kreativ kompetensiyalarni rivojlantirish yo'llari tahlil qilinadi. Shuningdek, dars jarayonida interaktiv metodlardan foydalanish, muammoli vaziyatlar yaratish, mustaqil izlanishga yo'naltirish kabi pedagogik texnologiyalarning samaradorligi ochib beriladi. Maqolada ijodiy fikrlashni rivojlantirishning ta'lim sifati, o'quvchilarning faolligi, mustaqil qaror qabul qilish ko'nikmasi va shaxsiy rivojlanishiga ta'siri ilmiy-nazariy jihatdan asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: ijodiy fikrlash, kreativ kompetensiya, ta'lim sifati, innovatsion metodlar, interaktiv ta'lim, muammoli ta'lim, mustaqil o'rganish, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim

Hozirgi globallashuv davrida ta'lim tizimiga qo'yilayotgan asosiy talablaridan biri – mustaqil fikrlaydigan, yangilik yarata oladigan, tashabbuskor va kreativ shaxsni shakllantirishdir. O'zbekiston Respublikasida so'nggi yillarda ta'lim sohasini modernizatsiya qilish, ta'lim sifatini oshirish va zamonaviy kompetensiyalarni rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. Bu yo'nalish O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni (O'RQ-637-son, 23.09.2020) bilan mustahkamlangan bo'lib, qonun ta'lim sohasidagi munosabatlarni tartibga solishni nazarda tutadi va har bir fuqaroning teng huquqli ta'lim olishini kafolatlaydi.

Shu bilan bir qatorda, pedagoglarning huquqiy maqomini mustahkamlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining imzosiga asosan qabul qilingan "Pedagogning maqomi to'g'risida"gi Qonun (O'RQ-901-son, 01.02.2024) ham joriy etilgan. Ushbu hujjat pedagoglarning kasbiy faoliyati, huquq va majburiyatlari, ijtimoiy kafolatlar hamda mehnatga yarasha haq to'lash tamoyillarini belgilaydi.

Mazkur qonunchilik hujjatlari ta'lim jarayonini insonparvarlik, shaxsga yo'naltirilganlik va kreativlik asosida tashkil etish zarurligini hamda o'qituvchi-professionalning maqomi va huquqiy holati ta'lim sifatini oshirish bilan chambarchas bog'liqligini ta'kidlaydi. Shu nuqtai nazardan an'anaviy, yodlashga asoslangan ta'lim modeli bugungi kun ehtiyojlarini to'liq qondira olmaydi. O'quvchilarning ijodiy fikrlash salohiyatini rivojlantirish esa ta'lim sifatini oshirishning muhim omillaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Ijodiy fikrlash – bu mavjud bilimlar asosida yangicha g'oyalar yaratish, nostandart yechimlarni taklif eta olish va vaziyatlarga mos ravishda moslashuvchan fikr yurita olish qobiliyatidir. Mazkur sifatni ta'lim oluvchilarda shakllantirish nafaqat bilim darajasini oshiradi, balki ularda o'z fikrini erkin ifoda etish, ijodiy fikrlash, mustaqil qaror qabul qilish va mas'uliyatni his qilish ko'nikmalarini ham rivojlantiradi.

Ijodiy fikrlash – bu mavjud bilimlar asosida yangicha g'oyalar yaratish, nostandart yechimlarni taklif eta olish va vaziyatlarga mos ravishda moslashuvchan fikr yurita olish

qobiliyatidir. Mazkur sifatni o'quvchilarda shakllantirish nafaqat bilim darajasini oshiradi, balki ularda o'z fikrini erkin ifoda etish, mustaqil qaror qabul qilish va mas'uliyatni his qilish ko'nikmalarini ham rivojlantiradi.

Konseptual xaritalar boshlang'ich sinf o'quvchilarida ijodiy fikrlashni rivojlantirishning samarali pedagogik vositasi hisoblanadi. U bilimlarni tizimlashtirish, mazmuniy bog'lanishlarni anglash, yangi g'oya yaratish va muammoli vaziyatlarda nostandart yechim topish ko'nikmalarini shakllantiradi. Natijada o'quvchilar shaxs sifatida ijodiy faol, mustaqil fikrlovchi va kompetensiyalarga ega bo'lib shakllanadi, bu esa umumiy ta'lim sifatining oshishiga xizmat qiladi.

Konseptual xarita (concept map) — tushuncha va g'oyalar o'rtasidagi mazmuniy aloqalarni vizual tarzda ifodalovchi grafik model bo'lib, u o'quvchilarga bilimlar tizimini mantiqiy bog'liqlikda idrok etish imkonini beradi. Boshlang'ich ta'lim bosqichida mazkur metod o'quvchilarning analitik, sintezlovchi va ijodiy tafakkur jarayonlarini faollashtiruvchi vosita sifatida alohida ahamiyat kasb etadi.

O'qish savodxonligi darsida konseptual xaritalar orqali ijodiy fikrlashni rivojlantirish (misol sifatida “Muzqaymoqni kim kashf qilgan?” matni asosida)

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ijodiy fikrlashni rivojlantirishning samarali vositalaridan biri bu — matn mazmunini konseptual xarita ko'rinishida modellashtirishdir. Konseptual xarita bolaga matndagi asosiy tushunchalarni ajratish, ularning o'zaro aloqalarini aniqlash, sabab-natija bog'lanishlarini ko'rish imkonini beradi. Ayniqsa O'qish savodxonligi darsida ushbu metod bolalarda mustaqil fikrlashni, tahlil qilish ko'nikmalarini, matndan ma'no chiqarish malakasini sezilarli darajada rivojlantiradi.

Mazkur metodni tushuntirish uchun “Muzqaymoqni kim kashf qilgan?” matni asos sifatida olinadi. Ushbu matn bo'yicha konseptual xarita quyidagi mazmuniy bloklar asosida shakllantiriladi:

Markaziy tushunchada muzqaymoq bo'lib, bu tushuncha xaritaning markaziga joylashtiriladi. Barcha ma'lumotlar aynan shu tushuncha bilan bog'lanadi. Muzqaymoqning belgilarini o'quvchilar matndan asosiy sifatlarni ajratadi:sovuq,Shirin,suti saqlangan mazali shirinlik turidir.

Bu jarayon o'quvchilarning: so'z boyligini oshiradi, sifatlarni aniqlash,malakasini mustahkamlaydi, matndan dalil topish ko'nikmasini rivojlantiradi

Muzqaymoqning kelib chiqishi matndan asoslanadi: dastlabki ko'rinishi muz va meva sharbati aralashmasidan tayyorlangan. Shirinlik sifatida Xitoyda mil. avv. 4 ming yil ilgari iste'mol qilingan. Bu blok orqali tarixiy fikrlash, vaqt ketma-ketligi, faktlarni ajratish rivojlanadi.

Tarixiy shaxs Marko Polo — yevropaliklarga muzqaymoq tayyorlashni tanishtirgan sayyoh sifatida kiritiladi. Bu yerda o'quvchi shaxs-voqea-natija aloqasini tushunadi, matnni tahlil qiladi.

Zamonaviy muzqaymoqning tarkibi matnga tayangan holda qaymoq,sut,ne'matlar (meva, shakar),tuxum (ba'zi hollarda) vanilin ekanligi sanab o'tiladi. Ushbu metod orqali dars yakunida o'quvchilar quyidagi xulosaga keladi:

Muzqaymoq qadimdan mavjud bo'lib, vaqt o'tishi bilan takomillashib, zamonaviy shaklga ega bo'lgan oziq-ovqat mahsulotidir.

Mazkur metod didaktik samarasi o'qish savodxonligi darsida konseptual xarita qo'llanilishi mazmunni chuqur anglash, bolalar matnni shunchaki o'qibgina qolmay, balki, ajratadi, taqqoslaydi, umumlashtiradi, xulosa qiladi va ijodiy fikrlash faollashadi

Ijodiy fikrlash mohiyatan yangi g'oyalar yaratish, mavjud bilimlarni nostandart yo'l bilan qayta ishlash va muammoga bir nechta yechim topish qobiliyatini bildiradi.

Konseptual xaritalar aynan mana shu jarayonni qo'llab-quvvatlaydi, chunki u bilimlarni vizual qayta tashkil etish, taqqoslash va yangi mazmuniy bog'lanishlar yaratishga imkon beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi. Ta'lim to'g'risida Qonun: O'RQ-637-son, 23.09.2020. – T.: Huquqiy axborot, 2020.
2. O'zbekiston Respublikasi. Pedagogning maqomi to'g'risida Qonun: O'RQ-901-son, 01.02.2024. – T.: Huquqiy axborot, 2024.
3. Abduqodirov A. Ta'lim sohasida modernizatsiya va sifatni oshirish yo'llari. – Toshkent: Ta'lim nashriyoti, 2022. – 176 b.
4. Karimov B. Zamonaviy kompetensiyalarni rivojlantirish va pedagogik faoliyat. – Toshkent: Pedagogika, 2021. – 152 b.
5. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. Ta'lim sifatini oshirish bo'yicha strategik yo'nalishlar. – Toshkent, 2023. – 88 b.